

## AMIR TEMURNING IQTISODIY SIYOSATI

**Ashirova Noila Xasan qizi**

*CHDPU Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Sharq iqtisodiy taraqqiyotida Amir Temurning iqtisodiy qarashlar muhim o'rinn tutgan. Amir Temur barcha odamlarga ishlash uchun imkoniyat yaratib bergen.

**Kalit so'zlar:** *iqtisod, siyosat, ma'naviyat, ma'rifat, "Temur tuzuklari", faylasuf.*

Amir Temur (1336-1405) o'z hukmronligi davrida Mavaraunnahr, Xorazm, Qirqiziston, Afg'oniston, Hindiston, Anatoliya, Qafqoz, Suriya va Iroq hududlarini birlashtirgan buyuk davlatni tashkil etdi. Ushbu davlatning iqtisodiy hayoti ham kamroq ahamiyatga ega edi. Temur davlatida iqtisodiy hayotning asosiy sohalariga e'tibor beramiz.

Amir Temur davlatida obodchilik va mehnat keng tarqalgan edi. Temur o'z hukmronligi davrida shaharlarni tiklash, eski shaharlarni yangilash va kengaytirishga katta e'tibor berdi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Turon, Farg'ona, Andijon, Hirot, Mashhad, Isfahan, Tabriz, Sheroz, Damashq kabi shaharlarda me'morchilik, naqqoshlik, daraxtsozlik, bog'dorchilik va suv sohasidagi yangi loyihalar amalga oshirildi.

Amir Temurning davlati savdo yo'lida muhim o'rniga ega edi. Bu davlat O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Eron, Afg'oniston va Hindistonni bog'laydigan savdo yo'li bo'ylab joylashgan edi. Xalqaro savdo asosan oltin, kumush, atlas, adres, shoyi, paxta, zargarlik buyumlari, yog', meva, g'alla va boshqa mahsulotlar bilan olib borilgan. Shuningdek, davlatning iqtisodiyati va savdosi Ipak yo'li orqali Xitoy, Hindiston, Suriya, Misr, Anadolu va Yevropa bilan ham bog'langan edi.

Amir Temur davlatida qishloq xo'jaligi keng tarqalgan edi. Qishloq aholisi asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanardi. Qishloq xo'jaligida asosiy mahsulotlar bug'doy, arpa, paxta, mevalar edi. Chorvachilikda esa go'sht, sut, yog', shirchoy va kumush mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Amir Temur davlatida sanoat ham rivojlangan edi. Asosan to'qimachilik, metallurgiya, ganchkorlik, temir ishlab chiqarish, zargarlik, qog'oz ishlab chiqarish va boshqa kasb-hunarlar rivojlangan edi. Bu sohada ishlab chiqarilgan mahsulotlar savdoga yuborilgan va davlat byujetiga tushgan daromadni oshirgan.

Amir Temur davlatining iqtisodiy hayoti davlatning siyosiy, madaniy va ilmiy rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Davlatning iqtisodiy muvaffaqiyatlari Temur davlatining buyuk madaniy merosi sifatida bugungi kunga qadar saqlanib qolgan.

Sharq mutafakkirlari, faylasuflari qatori buyuk sarkarda Amir Temur qoldirgan qutlug' merosi bugungi kun kishisiga ham katta ma'naviy-ma'rifiy ta'sir ko'rsatmoqdaki, buning mazmunini anglash, tasavvur etish har bir fuqaroning

vatanparvarlik burchidir. Amir Temur va temuriylarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy faoliyatlaridagi muhim yo'l-yo'riqlar, iqtisodiy g'oyalar, qarashlar, tasavvurlardan Sharq mamlakatlarida emas, butun Yevropada ham keng foydalanganlar. Sharq iqtisodiy tarakkurining rivojlanishida ulug' bobokalonimiz sohibqiron Amir Temurning g'oyalari, qarashlari va tafakkuri, u shaxs tomonidan ishlab chiqilgan, iqtisodiy-ijtimoiy hayotda amalga oshirilgan va qo'llanilgan qoida, tartib, usul, odat va qonunlar o'sha davr iqtisodiy siyosatida beqiyos katta tarixiy ahamiyatga egadir. Bu iqtisodiy qarashlar va g'oyalarning o'ziga xos ulug'vorligi eng avvalo shundaki, ular mavhum, xayoliy bo'lmasdan, balki real tarixiy taraqqiyotdan kelib chiqqan holda namoyon bo'lgan. Mana shuning uchun ham 686 yildan ortiqroq vaqt o'tganiga qaramasdan, hanuz o'zining amaliy-hayotiy ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Albatta, davrlar o'tishi bilan ular rivojlanib, takomillashtirilib kelinganligi tarixdan ma'lum<sup>31</sup>. Amir Temurning iqtisodiy siyosati "Temur tuzuklari" asarida, Boburning "Boburnoma"larida va boshqa ko'pgina Amir Temur, temuriylar to'g'risida yozilgan tarixiy manbalarda har tomonlama bayon etilgan. Ularda Sohibqironning mamlakatni boshqarishi, uni rivojlantirib borish qoidalari, tamoyillari, yo'l-yo'riqlari o'z ifodasini topgan. Bu asarlarda mamlakat iqtisodiyotini tashkil etish, barqarorlashtirish, tartibga solib borish, yuksaltirib borishga oid qimmatli iqtisodiy tavsiyalar, g'oyalalar, qarashlar, yo'l-yo'riqlar tizimi bayon etilgandi. Amir Temur barcha odamlarga kasbhunar o'rgatish, ish bilan ta'minlash, dehqonchilik, hunarmandchilik va tijorat ishlari bilan mashg'ul bo'lishga yaxshi imkoniyatlar yaratib bergan. "Tuzuklar"da "Kasbhunar va ma'rifat ahllariga sultanat korxonalaridan ulush berilsin", bu sarmoya asosida "bilagida kuchi bor faqir-miskinlar esa o'z ahvoli va kasb-koriga yarasha yo'l tutsinlar" degan tavsiyalar berilgani yana bir bor uning munosib, o'z xalqiga g'amxo'r podshoh bo'lganligini ko'rsatadi. Taqdir taqozasi bilan "Sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdogarlarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olish uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilishi" esa mamlakatda farovonlikni oshirishga qaratilgan iqtisodiy siyosat olib borilganidan darak beradi. Amir Temur sultanatida qishloq xo'jaligi asosiy iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini shundan bilish mumkinki, Sohibqiron dehqonchilikni rivojlantirish uchun shunday farmoyish beradi: "Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug' va asbob tayyorlab berilsin"<sup>32</sup>. Bunday insonparvar g'oyalarni va siyosatni tarixiy manbalarda kamdan-kam uchratamiz. Ulkan mamlakat xalqini, hisobsiz sipohiyllari va xizmatkorlarni boqadigan asosiy daromad manbai bu qishloq xo'jaligi ekanligini Temur teran anglagan. Amir Temur aholining tinch va osoyishta yashamog'i, oilalarning butligi uyjoy masalasiga juda bog'liqligini his etgan holda, "Agar

<sup>31</sup> Akhmedov, B. A. (2020). KARAKUL BREEDING DURING THE BUKHARA EMIRATES. In НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ (pp. 160- 162).

<sup>32</sup> Temur Tuzuklari, T., T. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996 25-b

fuqarodan birining uyimorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalarini yetkazib berib, unga yordam berilsin” deb farmon beradi. Yuqorida bayon etilgan farmonlar va iqtisodiy siyosatning qoida hamda yo‘l-yo‘riqlari o’sha davrlarda iqtisodiy ta’lim-tarbiya davlat miqyosida yo‘lga qo‘yilgan va amalga oshirilganini bildiradi. Bu tamoyillar hozirgi davrda ham Respublika mustaqilligini mustahkamlashda, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish jarayonida biz uchun muhim o‘git va saboq, tarixiy yo‘lyo‘riq bo‘lib xizmat qiladi. Eng muhimi shundaki, Amir Temurning bunday iqtisodiy siyosati G‘arb mamlakatlardan 300-400 yillar oldinroq amalga oshirilgan<sup>33</sup>. Amir Temur soliq siyosatini oldingi davrlarda yig‘ilgan qonun-qoidalarni har tomonlama o‘rganib va Islom dini tavsiyalariga amal qilgan holda, shuningdek, o‘z davrining xususiyatidan kelib chiqib olib bordi. Yaqin va O‘rtta Sharq mamlakatlarda, jumladan Markaziy Osiyoda davlat tomonidan undirilgan yer solig‘i xiroj deb yuritilgan. Xiroj olish dastavval arab xalifaliklari hududlarida "juzya" atamasining sinonimi sifatida qo‘llanilib, musulmon bo‘limgan aholi bilan bir qatorda yer-suvga ega bo‘lgan musulmonlardan ham undirilgan. Musulmon qonunshunoslari xirojni "Xiroj-musaha" (yer maydoni birligidan undirilgan) va "Xiroj-muhasama" (yerning sifati va sug‘orish usullariga qarab, hosilning to‘rtadan biri, uchdan biri yoki ikkidan biri qismi hajmida undirilgan)ga qarab ajratganlar. Xiroj (solih) undirish Markaziy Osiyoda VII asrda arablar tomonidan joriy qilingan edi. Xiroj yig‘ish uchun har bir viloyatga sarkor, qishloqqa devonbegi va kotib tayinlangan edi. Sohibqiron ham taxtga o‘tirishi bilan yer-suvdan olinadigan xirojni mahsulot shaklida (asosan don) va pul (oltin yoki kumush) shaklida ham undirib olishni joriy etgan edi. Amir Temurning soliq solish, undirish va savdogarlardan boj olish, ular daromadidan soliq yig‘ib olish siyosati nihoyatdaadolatli bo‘lganligi uchun har bir viloyatda va uning tasarrufidagi mamlakatlarda mahalliy aholi soliq solish jabri va nohaqligi yuzasidan noroziligini bildirmagan. Qo‘shti mamlakat xalqlari o‘z hukmdorlarining soliq olish siyosatidan Amir Temurga shikoyatlar qilib kelganligi tarixiy manbalardan bizga ma'lumdir. Amir Temurning iqtisodiy siyosatida, iqtisodiy qarashlari tizimida soliq masalasi markaziy o‘rinni egallaydi. Eng muhimi soliq tizimi orqali olib borilgan oqilona siyosat tufayli ham obodonli yuksalgan, ham xazina to‘liq bo‘lgan. Amir Temurning ta’kidlashicha, agar xalq soliq tizimi orqali kambag‘allahadigan bo‘lsa, davlatning iqtisodiy qudrati pasayib, tanazzulga yuz tutishi tabiiydir. Xalqning farovon va boy-badavlat yashashi uchun mamlakatdaadolatli soliq tizimi faoliyat ko‘rsatishini yaxshi anglagan edi. O‘z navbatida ko‘proq daromad topib odamlar boy bo‘lgan sari xazinaga soliq tushumi ham ko‘payib borgan<sup>34</sup>. "Temur tuzuklari"da aholidan olinadigan soliqlar ularning

<sup>33</sup> Мамасалиев, М. М. (2022). ЭПОХА ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ АМИРА ТЕМУРА: ФИЛОСОФСКИЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ. In РАЗВИТИЕ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 161-165).

<sup>34</sup> Akhmedov, B. A. (2019). THE ROLE OF UZBEKISTAN ON ESTABLISHING KARAKUL (ASTRAKHAN) SHEEP BREEDING IN FOREIGN COUNTRIES. Theoretical & Applied Science, (3), 72-75.

ishlab topgan daromadlari darajasiga qarab adolatli belgilanishi, aholining qaysi birlari el-yurt, tuman va shaharlar obodonligi yo'lida, madaniyat va ma'rifatning rivoji yo'lida o'z mol-mulki va sarmoyasini ayamay sarflasalar, ularga davlat soliq to'lash borasida har xil yengillik imtiyozlar berishi lozimligi ko'rsatib o'tiladi. Amir Temur tasarrufidagi ulus (viloyat va mamlakatlar) hukmdorlarining alohida davlat apparati, mustaqil qo'shini bo'lib, ular o'z hududlaridan undirib olingan hosilning uchdan bir qismini Samarqandga, davlat xazinasiga yuborib turgan va Oliy hukmdor harbiy yurishlarga chiqqanda o'z qo'shini bilan qatnashgan va yetarli oziq-ovqat, kiyim-aslohalar bilan ta'minlab turgan. Amir Temur davrida soliq to'lashdan ozod etilgan, imtiyozga ega bo'lgan toifalar ham bo'lgan. -48- Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xiroj sug'oriladigan yer uchastkalaridan olingan hosilning uchdan bir qismi, lalmikor (sug'orilmaydigan) yomg'ir suvi bilan yerdan olingan daromadning to'rtadan bir qismi hajmida undirib olingan. Bu ishlarni bajarish viloyatlardagi ikki vazirga topshirilgan. Biri undirilgan xiroj mol-mulkni yozib olib, aholining ahvolini tekshirib turgan, kirim daftariga yozib borgan. Ikkinchisi esa, chiqim daftariga yozib, yig'ilgan mol-mulklar (soliqlar)dan sipohiyalar maoshiga taqsim qilgan. Sohibqironning ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy faoliyatidagi yana bir muhim jihat shundaki, ijtimoiy himoya, kambag'al, kam ta'minlangan kishilarni va o'z xizmatini sidqi-dildan bajargan odamlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi mavjud bo'lgan. Amir Temur davlatidagi sipohiyalar (harbiy) kishilarning har biri ko'rsatgan oliy xizmatlari uchun munosib taqdirlab turilgan. Oddiy sipoh maosh uchun bir bosh ot qimmatida maosh olgan, o'nboshi ikki ot qimmatida va shu tariqa lavozimi oshgan sari maoshi ham ko'tarilib boravergan. Urushlarda va boshqa ishlarda ko'rsatilgan alohida xizmatlari uchun ham mol-mulklar, turli qimmatbaho buyumlar, yer-suвлar bilan taqdirlanishgan. Amur Temur davrida juda katta obodonchiliq qurilish ishlari olib borildi. Yangi bog'lar bunyod etildi. Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqolar (g'ariblar istiqomat qiladigan joylar) qurildi, yo'lovchi musofirlar uchun yo'l ustiga rabotlar (karvon saroylar) bino qilindi, daryolar ustida ko'priklar tiklandi. Madrasalar qad ko'tardi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi taraqqiyot o'sha davrdagi boshqa mamlakatlarga nisbatan, ayniqsa, Yevropaga nisbatan ancha ilgarilab ketgan, madaniy-ma'rifiy va ma'naviy sohalarda ancha yuqori darajaga erishilgan edi. Bularning hammasi Amir Temur davrida adolatli iqtisodiy siyosat amalga oshirilganligi tufaylidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. 1996
2. Temur tuzuklari. Toshkent, 1996
3. Temur Tuzuklari, T., T. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996

4. Мамасалиев, М. М. (2022). ЭПОХА ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ АМИРА ТЕМУРА: ФИЛОСОФСКИЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ. In РАЗВИТИЕ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 161-165).
5. Mamasaliyev, Mirzoulug' Mirsaidovich (2021). THE STATE OF SAHIBQIRAN AMIR TEMUR PHILOSOPHICAL AND ETHICAL ISSUES IN MANAGEMENT. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (8), 456- 462.
6. Akhmedov, B. A. (2020). KARAKUL BREEDING DURING THE BUKHARA EMIRATES. In НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ (pp. 160- 162).
7. Akhmedov, B. A. (2019). THE ROLE OF UZBEKISTAN ON ESTABLISHING KARAKUL (ASTRAKHAN) SHEEP BREEDING IN FOREIGN COUNTRIES. Theoretical & Applied Science, (3), 72-75.